



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

MUHAMMAD SHAYBONIYNING TA'LIMIY VA MADANIY FAOLIYATI

Umurova Sharofat Haydarovna
Navoiy davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVI asrda hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasining asoschisi, davlat arbobi, shoh va shoir Muhammad Shayboniyxonning o'z davrning ta'lim-tarbiya tizimi va madaniyatiga qo'shgan hissasi, o'z zamonasida yashab faoliyat ko'rsatgan, ijod ahlini qo'llab quvvatlab homiylik qilgani ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, Muhammad Shayboniyxonning ilmiy madaniy faoliyati haqida olimlarning qarashlari yoritilgan. Ushbu davrda shakllangan ta'limiy va tarbiyaviy qarashlarning bugungi zamonaviy pedagogik jarayonlar bilan o'xshash va mushtarak jihatlari ochib berilgan. Tadqiqot jarayonida tarixiy manbalar va pedagogik yondashuvlar asosida Shayboniylar davri ma'naviy-ma'rifiy merosining hozirgi ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Movarounnahr, Shayboniylar, Temuriylar, Muhammad Shayboniyxon, ta'lim-tarbiya, madrasa, ma'naviy meros, axloqiy tarbiya, kubraviya, naqshbandiya, yassaviya.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУХАММАДА ШАЙБАНИ

Умурова Шарофат Хайдаровна
Навоийский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В данной статье научно анализируется вклад основателя династии Шайбанидов, государственного деятеля, полководца, правителя и поэта Мухаммада Шайбани-хана в развитие системы образования и культуры XVI века. Рассматривается его деятельность по поддержке учёных, поэтов и деятелей культуры, а также его роль в формировании духовно-просветительской среды своего времени. Особое внимание уделяется взглядам исследователей на научную и культурную деятельность Мухаммада Шайбани-хана. В статье раскрываются общие черты образовательных и воспитательных идей эпохи Шайбанидов и современных педагогических процессов. На основе исторических источников и педагогических подходов обосновывается значение духовно-просветительского наследия периода Шайбанидов для развития современной системы образования и воспитания.

Ключевые слова: Мавераннахр, Шайбаниды, Тимуриды, Мухаммад Шайбани-хан, образование и воспитание, медресе, духовное наследие, нравственное воспитание, кубравия, нақшбандия, яссавия.

THE EDUCATIONAL AND CULTURAL ACTIVITIES OF MUHAMMAD SHAYBANI

Umurova Sharofat Haydarovna
Navoi State University, Master's Student

Abstract

This article provides a scholarly analysis of the contribution of Muhammad Shaybani Khan—the founder of the Shaybanid dynasty, a statesman, military leader, ruler, and poet—to the educational system and cultural development of the sixteenth century. It examines his patronage of scholars, poets, and intellectuals, as well as his role in fostering the spiritual and educational environment of his era. The study also reviews scholarly perspectives on Muhammad Shaybani Khan's scientific and cultural activities. Furthermore, it highlights the similarities between the educational and moral concepts that emerged during the Shaybanid period and contemporary pedagogical practices. Based on historical sources and pedagogical approaches, the article substantiates the significance of the spiritual and educational heritage of the Shaybanid era for the development of modern education and upbringing.

Keywords: Mawarannahr, Shaybanids, Timurids, Muhammad Shaybani Khan, education and upbringing, madrasa, spiritual heritage, moral education, Kubrawiyya, Naqshbandiyya, Yasawiyya.

O'zbek xalqi tarixida ta'lim-tarbiya masalasi har doim muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etib kelgan. Bugungi globallashuv sharoitida tarixiy pedagogik tajribani o'rganish va uni zamonaviy ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Xususan, Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davr —

XVI asr ilm-fan, madaniyat va ma'rifat rivojida alohida muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Markaziy Osiyo tarixida bu davrning asoschisi Muhammad Shayboniyxon hisoblanib, uning ilmiy faoliyatini o'rganish va undan zamonaviy pedagogikada foydalanish muhim omil hisoblanadi. Chunki Muhammad Shayboniyxon o'zbek davlatchiligi tarixida siyosiy hokimiyat bilan birga ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Uning davrida madrasalar qurilib, tarixnavislik, fiqh, adabiyot va tibbiyot sohalarida muhim asarlar yaratilgan. Bu davrda ta'lim va madaniyat tizimi jamiyat ehtiyojlariga mos holda shakllanib, shaxsning nafaqat intellektual, balki axloqiy kamolotini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilgan.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada XVI–XX asrlarda yashab ijod etgan o'rta osiyolik, forsiy va turkiy mualliflarning asarlaridan hamda xorijiy mutaxassislarining nashrlaridan foydalanilgan. Jumladan, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, V.V. Bartoldning “Turkiston mo'g'ullar davrida” asari, venger sharqshunosi Armin Vamberining “Buxoro tarixi”, A.A. Semyonovning “Temur imperiyasining kengayishi”, A.M. Malikov va K.U. Torlanbayevaning “Shayboniyxon madaniy faoliyatining ayrim xususiyatlari va XVI asr boshlarida Samarqanddagi monumental qurilish” nomli maqolasi, A. Bodrogligeting “Muhammad Shayboniyning «Bahr ul-hudo» asari: XVI asr boshlaridagi chig'atoy tilidagi didaktik qasida” maqolasi hamda B. Ahmedovning “Tarixdan saboqlar” asarlaridan foydalanilgan.

Muhokama va tahlilar. Movarounnahrda bir asr hukmronlik qilgan davlatning asoschisi Muhammad Shayboniyxon XVI asr boshlarida (1500–1510) Movarounnahr ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi. Samarqand, Buxoro va Toshkent kabi yirik shaharlar yangi sulolaning siyosiy markazlariga aylandi. Uning haqiqiy ismi V. V. Bartoldning fikriga ko'ra Shohbaxt Muhammad [2], R. G. Mukminova, V. P. Yudin va Edvard Allworth kabi tadqiqotchilar fikrlariga ko'ra esa Abulfath Muhammad Shayboniyxon bo'lgan. Shayboniy — she'riy taxallusidir. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida yozilishicha, Shohbaxt taxallusi unga Abulxayrxon tomonidan berilgan. Muhammad Shayboniyxon tomonidan asos solingan bu davlat nafaqat siyosiy jihatdan kuchli markazlashgan davlat edi, balki ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va falsafa sohalarida ham ulkan yutuqlarga erishganini tarix guvohlik beradi. Sulola hukmdorlari o'z ijodi, ijod ahliga homiyligi, shaharlarda yaratgan ilmiy-madaniy muhiti orqali o'zbek adabiyoti, ilm-fani va madaniy merosi rivojida muhim rol o'ynadi.

Movarounnahrning qadimiy madaniy merosi zaminida voyaga yetgan Muhammad Shayboniyxon o'z davrining fan va madaniyatining yirik homiylaridan bo'lgan. Uning hukmronligi davrida Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda madaniy va ilmiy hayot rivojlangan.

Shayboniyxon nafaqat mohir sarkarda, balki ilm-ma'rifatga qiziquvchi, she'r yozuvchi va olimlarni qadrlagan hukmdor edi. U adabiyotni jondan sevgani uchun saroy adabiyotining mavqeini yaxshilashga uringan. Uning o'zi o'zbek tilida g'azal va ruboiylar ham yozgan. Muhammad Shayboniyxonning ana shu g'azal va ruboiylaridan ayrimlari, “Bahr ul-hudo” nomli dostoni, o'g'li Muhammad Temur Sultonga atab yozgan pand-nasihatlardan iborat kitobi (yagona nusxasi Turkiyada saqlanadi) bizgacha yetib kelgan. Undan ko'chirilgan nusxa O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasining qo'lyozmalar jamg'armasida mavjud.

Muhammad Shayboniyxon haqida “Tarixi Guzida”, Binoiyning “Shayboniynoma”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” va Boburning “Boburnoma” asarlarida ma'lumotlar keltirilgan. Muhammad Shayboniyxonning otasi Shohbudog'xon ham o'qimishli odam bo'lgan. Uning buyrug'i bilan fors tilidagi asarlar turkiy tilga tarjima qilingan. U Hazrati Imom uz-Zamon xalifat ur-Rahmon (zamona imomi va xalifasi) unvoniga erishgan.

Qur'onni eng yaxshi tilovat qiluvchilardan biri bo'lgan Muhammad Shayboniyxon haqida XVI asr mutafakkiri Muhammad Solih quyidagi fikrni bildirgan:

“Qur'on tilovatida unga teng keladigan biror kishi mutlaqo yo'q edi” [7].

Vengriyalik sharqshunos A. Vamberi (1832–1913) Muhammad Shayboniyxonni ko'plab Temuriylar singari madaniyatli va bilimli bo'lganini ta'kidlagan [4]. Shayboniyxonning tarbiyasi avval bobosi Uyg'ur-bay shayxga, keyin esa Qarachin bahodirga topshirilgan [9]. XVI asr tarixchisining ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrni to'liq zabt etishidan oldin Buxoroda “ikki yil davomida Qur'onni to'g'ri o'qish (tilovat) san'atini o'rgangan” [5].

Muhammad Shayboniyxon ta'limni Turkistonda olgan bo'lishi ham mumkinligi haqida turli taxminlar mavjud.

A. Semenovning fikricha, Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sulton begim 1451 yilda Abu-l-Xayrxonga turmushga chiqqanidan so'ng Turkistonda yashagan. “Shayboniylar jamiyatida ayollarning

yuqori mavqei, ularning faolligi va yig'inlarda ishtiroki hisobga olinsa, Shayboniyxon yoshlik chog'ida Samarqand va uning temuriylar madaniyati haqida chuqur bilimlarni Robiya Sulton begimdan olgan bo'lishi mumkin" [4]. A. Semenov esa: "Shayboniyxon mahalliy yuksak madaniyatli inson bo'lib, o'zining mashhurligini oshirish va ruhoniylar bilan yaqinlashish maqsadida ilm, ma'rifat va san'atga qiziqish bildirgan", deb hisoblagan [4].

Shayboniyxon ikki yil davomida Buxoroda bo'lib, u yerda islom olimlari Mavlono Muhammad Hitoyiy, shayx Jamol ad-din Azizon va shayx Mansurdan ta'lim olgan. B. Ahmedovning fikricha, 1486 yildan 1490-yillarning boshlariga qadar Shayboniyxon Xorazmda yashagan. Bu hudud ham Markaziy Osiyodagi islom madaniyatining muhim markazlaridan biri edi [1]. Shayboniyxon Kubraviya tariqatiga yaqin bo'lgan. Keyingi manbalarda Kubraviya shayxlaridan biri Shams ad-din Muhammad Xorazmiy Shayboniyxonning birinchi ustoz va murabbiyi sifatida tilga olingan. Shu bilan birga, Muhammad Shayboniyxon Naqshbandiya shayxlarining qudratini o'z siyosiy manfaatlariga muvofiq ravishda ishlatgan. Naqshbandiya, Kubraviya va Yassaviya tariqatlari yetakchilaridan olgan qo'llab-quvvatlash Muhammad Shayboniyxonga Movarounnahr shaharlarini boshqarishda yordam bergan. Muhammad Shayboniyxon o'zining chingiziy ildizlarini ta'kidlab, islom va fiqh bo'yicha bilimdonligini namoyish etgan.

Muhammad Shayboniyxon doimiy harbiy yurishlar olib borgan bo'lsa-da, u adabiyotshunos olimlar va mutafakkirlar bilan suhbat qurishni xush ko'rgan [8]. Shayboniyxonning she'rlari uning dunyoqarashi hamda tarixiy, diniy va adabiy asarlar bo'yicha bilimini ko'rsatadi. A. Vamberining ta'kidlashicha, Muhammad Shayboniyxon asarlari uning she'riy iste'dodi va turkiy, forsiy hamda arabiy tillarni chuqur bilishini tasdiqlaydi. Shayboniyxon sufiy olim Husayn Xorazmiy asarlari bilan tanish bo'lgan. U forsiy shoirlar Sa'diy, Hofiz, Farid ad-din Attor, shuningdek, turkiy shoir Alisher Navoiy nomlarini tilga oladi [4].

Shayboniyxonning "Bahr al-hudo" asarida forsiy shoir Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarining bevosita ta'siri seziladi [3]. Sa'diy Sheroziy she'rlari Oltin O'rda va Temuriylar davlatida mashhur bo'lgan. Muhammad Shayboniyxonning o'zini islom madaniyatida yuksak bilimli shaxs sifatida ko'rsatishga intilishi Behzod miniatyurasida ham yaqqol ko'rinadi. Unda Shayboniyxon ramziy buyumlar — qalamdon, siyohdon va kichik kitobcha bilan tasvirlangan.

Shayboniyxon qisqa hukmronligi davrida, uzluksiz harbiy yurishlarga qaramay, o'z g'oyalarini ifoda etishga ulgurgan. U Samarqandda oila a'zolari uchun sufa — dafn inshooti, madrasa, bog'-saroy majmualari va ko'prik qurdirgan. Sufa Shayboniyxon madrasasi hovlisida joylashgan bo'lib, u o'sha davrda musulmon ta'limi va qonun ijodkorligining ramzi sifatida ko'rilgan. Sufa qurilishi Temuriylarning dabdabali maqbaralari va Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxonning Sighnoqdagi dafn joyidan farq qilib, ancha sodda bo'lgan. Ehtimol, bu sufa Buxoro oliy ruhoniylari daxmalariga taqlid qilingan yoki Dashti Qipchoqdagi dafn an'alarini davom ettirgan bo'lishi mumkin.

Madrasaning joylashuvi ham ramziy ahamiyatga ega edi. U Amir Temurning katta xotini, chingiziylerden bo'lgan Saroy Mulkxonim madrasasi va Mirzo Ulug'bek madrasasi o'rtasida qurilgan. Bundan tashqari, bu davrda Temuriylarning saroy-bog' majmualari qurish an'analari davom ettirilib, yangi majmualar ham barpo etilgan.

Shayboniy davri Movarounnahr tarixida o'ziga xos davr bo'lib, Temuriylar davridan farqli o'laroq, hukmron sulolaning o'z tarixshunosligi turkiy tilda yaratildi. Ta'kidlash joizki, XIV–XV asrlarda Oltin O'rda davrida turkiy til yuqori maqomga ega bo'lgan. Tadqiqotchilar Yassaviya shayxlari turkiy tilning she'riyatda qo'llanishida muayyan rol o'ynaganini qayd etadilar. Muhammad Shayboniyxon turkiy tilga katta ahamiyat berilgan muhitda ulg'ayib, tarbiya topganligi bois, turkiy tilda ham o'z ijod namularini yaratgan. U o'z davri madaniyatiga katta hissa qo'shgan hukmdor hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Shayboniy davri davlatchiligimiz tarixida nafaqat siyosiy hokimiyat o'zgarishi, balki ilm-fan, adabiyot va ta'lim-tarbiya rivojida ham muhim bosqich sifatida alohida o'rin egallaydi. Temuriylar davri madaniyati hamda ta'lim-tarbiya an'analari Shayboniy davri hukmronligi davrida davom ettirilib, yanada rivojlantirilgan. Hukmron sulola vakillari — Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon Soniy ham avvalgi suloladan yetishib chiqqan madaniyat homiylari Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va Sulton Husayn Boyqaroning madaniyat hamda ilm-fan sohasidagi homiyligi an'alarini davom ettirganlar [10, 91-bet].

Xususan, Muhammad Shayboniyxon o'z davrining ma'rifatli hukmdori bo'lib, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. U she'riyatda o'zbek tilining mavqegini mustahkamlashga harakat

qilgan hamda diniy bilimlarni siyosiy va madaniy hayot bilan uyg'unlashtirgan. Bugungi kunda ham ma'naviy qadriyatlar ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Muhammad Shayboniyxonning ilm-ma'rifatga homiyligi, madrasalar qurdirishi, olim va shoirlarni qadrlashi ta'limning ijtimoiy hayotdagi o'rini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Bu davrda ta'lim-tarbiya jarayoni jamiyat ehtiyojlariga moslashtirilib, shaxsning intellektual va axloqiy kamolotini ta'minlashga xizmat qilgan. Madrasa va ilmiy markazlar qurilishi, olimlar va shoirlarga homiylik qilish, diniy-ma'rifiy muhitni rivojlantirish orqali Shayboniylar sulolasi Movarounnahrni o'z davrining ilmiy-madaniy markazlaridan biriga aylantirgan.

Shayboniylar davri ta'lim-tarbiya tajribasi bizga shuni ko'rsatadiki, ilm-fan va ma'rifat jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo'lib kelgan. Bu davr ta'lim-tarbiya tajribasi bizga ilmga homiylik qilish, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlarni asrash va jamiyat ehtiyojlariga moslashish kabi muhim saboqlarni beradi. Ushbu saboqlarni zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish, bugungi ta'lim tizimida o'tmish qadriyatlarimizdan bizgacha yetib kelgan ustoz-shogird an'alarini saqlab qolish va rivojlantirish O'zbekistonning kelajakdagi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
2. Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar davrida. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Bodrogligeti A. Muhammad Shaybani's Bahru'l-huda: An Early Sixteenth Century Didactic Qasida in Chagatay // Ural-Altische Jahrbücher. – 1982. – Vol. 54.
4. Kamaliddin Binai. Shayboninama // Materialy po istorii kazakhskikh khanstv XV–XVIII vekov (Iz vlecheniya iz persidskikh i tyurkskikh sochineniy) / sost.: S.K. Ibragimov, N.N. Mingulov, A.K. Pishulina, V.P. Yudin. – Alma-Ata: Nauka, 1969.
5. Malikov A.M., Torlanbayeva K.U. Nekotoryye osobennosti kul'turnoy identichnosti Sheybani-khana i monumental'noye stroitel'stvo v Samarkande v nachale XVI veka // Zolotoordynskoye obozreniye. – 2022. – T. 10, № 2. – S. 391–413.
6. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – Toshkent, 1961.
7. Proceedings of International Educators Conference. Hosted Online from Rome, Italy, 25 January 2023. – ISSN 2835-396X.
8. Semyonov A.A. Timur imperiyasining kengayishi // Markaziy Osiyo tojiklari va o'zbeklari tarixi bo'yicha materiallar. Tojik SSR Fanlar akademiyasi yig'ilish hujjatlari. – Stalinalabad, 1954. – T. 12, № 1.
9. Tavarikh-i Guzida-Nusrat-name: tadqiqot, tanqidiy matn, izohlangan mazmun jadvali va xulosaviy mazmun jadvali / A.M. Akramov. – Toshkent, 1967. – 358 b.
10. Vámbéry Á. History of Bokhara from the Earliest Period Down to the Present: Composed for the First Time After Oriental Known and Unknown Historical Manuscripts. – London: H.S. King & Co., 1873. – 419 p.